



RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA DAVRIDA ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

dots. **Ravshanova Muhayyo**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0002-2385-5485

muhayyo.ravshanova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida elektron tijorat tizimlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda elektron tijoratning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'рни, uning rivojlanish tendensiyalari hamda raqamli texnologiyalarning ushbu jarayonga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, elektron tijorat tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar raqamli infratuzilma, innovatsion texnologiyalar, marketing strategiyalari va huquqiy asoslar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada global va milliy darajadagi elektron tijorat rivojlanish jarayonlari qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida muhim xulosalar chiqarilgan. Tadqiqot davomida elektron tijoratning iqtisodiy samaradorlikka, bandlik darajasiga hamda bozor munosabatlarining transformatsiyasiga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, raqamli transformatsiya, innovatsiya, raqamli marketing, biznes modeli, sun'iy intellekt.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СИСТЕМ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

доц. **Равшанова Мухайо**

Университет экономики и педагогики

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических и практических аспектов развития систем электронной коммерции в контексте цифровой трансформации. Исследование рассматривает роль электронной коммерции в современной экономике, тенденции ее развития и влияние цифровых технологий на этот процесс. Также научно проанализированы основные факторы, способствующие повышению эффективности систем электронной коммерции: цифровая инфраструктура, инновационные технологии, маркетинговые стратегии и правовые рамки. В статье представлен сравнительный анализ процессов развития электронной коммерции на глобальном и национальном уровнях, а также сделаны важные выводы на основе опыта развитых и развивающихся стран. Исследование выявляет влияние электронной коммерции на экономическую эффективность, уровень занятости и трансформацию рыночных отношений.

Ключевые слова: электронная коммерция, цифровая трансформация, инновации, цифровой маркетинг, бизнес-модель, искусственный интеллект.

DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF E-COMMERCE SYSTEMS IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION

assoc. prof. **Ravshanova Muhayyo**
University of Economics and Pedagogy

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of the development of e-commerce systems in the context of digital transformation. The study examines the role of e-commerce in the modern economy, its development trends, and the impact of digital technologies on this process. Also, the main factors that contribute to increasing the efficiency of e-commerce systems digital infrastructure, innovative technologies, marketing strategies, and legal frameworks are scientifically analyzed. The article provides a comparative analysis of the development processes of e-commerce at the global and national levels, and important conclusions are drawn based on the experience of developed and developing countries. The study reveals the impact of e-commerce on economic efficiency, employment levels, and the transformation of market relations.*

Keywords: *e-commerce, digital transformation, innovation, digital marketing, business model, artificial intelligence.*

Kirish.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar, xususan raqamli transformatsiya jarayonlari barcha tarmoqlar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki biznes yuritish falsafasining o'zgarishini ham anglatadi. Bu jarayon an'anaviy iqtisodiy modeldan raqamli iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirib, yangi qiymat yaratish mexanizmlarini shakllantirmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida elektron tijorat tizimlari iqtisodiy faoliyatning eng dinamik rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Elektron tijorat - bu internet va boshqa raqamli texnologiyalar orqali tovar va xizmatlarni sotish, xarid qilish hamda almashish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tizimlar orqali ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi masofa qisqaradi, vaqt va xarajatlar tejaydi hamda savdo jarayonlari yanada shaffof va samarali bo'ladi.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha internet foydalanuvchilari sonining keskin ortishi, mobil internet texnologiyalarining rivojlanishi, smart qurilmalar keng tarqalishi hamda elektron to'lov tizimlarining takomillashuvi elektron tijorat hajmining yil sayin oshib borishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida an'anaviy savdo tizimlarining cheklanishi natijasida onlayn savdoga bo'lgan talab keskin oshdi va bu holat elektron tijoratning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirdi. O'zbekiston sharoitida ham elektron tijorat tizimlari jadal rivojlanmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron to'lov tizimlari, onlayn savdo platformalari va logistika xizmatlari kengayib bormoqda. Biroq, ushbu sohada hali ham hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat tizimi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, xalqaro olimlar elektron tijoratni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholaydilar. Ebrima Jabbi (2023) o'z ilmiy izlanishlarida turli davlatlarda elektron tijoratni joriy etish va raqamli tayyorgarlik darajasini tahlil qilgan. Raqamli transformatsiyaning paydo bo'lishi global biznes muhitini tubdan o'zgartirgani, ayniqsa elektron tijorat sohasida sezilarli ta'sir ko'rsatgani ta'kidlab, Indoneziya va Gambiya misolida olib borilgan qiyosiy tadqiqotda raqamli transformatsiyaning joriy etilishi hamda uning elektron tijoratni qabul qilish jarayoniga ta'siri tahlil qilgan. Tadqiqot davomida hukumat dasturlari, texnologik infratuzilma, iste'molchilar xulq-atvori va biznes subyektlarining moslashuvchanligi asosiy omillar sifatida

ko'rib chiqilgan. Ushbu omillar orqali mazkur ikki mamlakatda yirik elektron tijorat kompaniyalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi jihatlar aniq ifodalab bergan.

Elektron tijorat tizimlarida raqamli transformatsiya strategiyalarini Elena Azaryan va Denis Makhnosovlar (2023) o'z ilmiy izlanishlarida yoritganlar. Ilmiy maqolalarida elektron tijoratning raqamli transformatsiyasi - bu elektron savdo jarayonlarini takomillashtirish va optimallashtirish maqsadida raqamli texnologiyalar hamda innovatsiyalardan foydalanishni anglatishi qayd etganlar. Ushbu jarayon internet texnologiyalari, mobil ilovalar, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy vositalarni joriy etishni o'z ichiga olgan keng ko'lamli o'zgarishlarni qamrab olishi ta'kidlanadi. Raqamli transformatsiya tovar va xizmatlarni sotib olish hamda sotish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish, operatsion vazifalarni avtomatlashtirish, mijozlar uchun qulaylikni oshirish, logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda iste'molchilar bilan aloqani yaxshilash imkonini berishi aniqlanganlar.

Madiyeva (2023) elektron tijorat subyektlarini boshqarish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va Big Data tahlilining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Muallifga ko'ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish elektron tijorat rivojlanishining asosiy omillaridan biridir.

Asrayev (2024) elektron tijoratni raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy tizimlarni modernizatsiya qilishning muhim strategik omili sifatida talqin qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, elektron tijorat nafaqat savdo jarayonlarini raqamlashtirish vositasi, balki butun iqtisodiy tizimning samaradorligini oshiruvchi kompleks mexanizm hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali bozorlarda raqobat kuchayadi, tranzaksiya xarajatlari sezilarli darajada kamayadi hamda tovar va xizmatlar aylanishi tezlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida hududiy iqtisodiy salohiyatni baholash orqali elektron tijorat tizimini innovatsion takomillashtirish uchun turli ilmiy yondashuvlar qo'llanildi. Asosiy metodlar sifatida statistik ma'lumotlar tahlili, taqqoslash usuli, tizimli yondashuv va kontent-tahlil birlashtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'tkazilgan tadqiqotlar va mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida elektron tijorat tizimlarini rivojlantirish murakkab, ko'p omilli va uzviy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy omillarni ham qamrab oladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, elektron tijorat tizimlarining samarali rivojlanishi bir nechta asosiy yo'nalishlar uyg'unligida ta'minlanadi.

Birinci muhim yo'nalish sifatida raqamli infratuzilmaning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, internet tezligi va barqarorligi, mobil aloqa qamrovi, elektron to'lov tizimlarining ishonchliligi hamda logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi elektron tijorat hajmining o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, rivojlangan infratuzilmaga ega mamlakatlarda onlayn savdo ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lib, tranzaksiyalar tez va samarali amalga oshiriladi. Aksincha, infratuzilma zaif bo'lgan hududlarda elektron tijoratning rivojlanishi sekinlashadi. Ikkinchi yo'nalish innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'liq. Sun'iy intellekt, Big Data, mashinaviy o'qitish va bulutli texnologiyalar elektron tijorat tizimlarining intellektual darajasini oshiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida iste'molchilarning xarid qilish xulq-atvori tahlil qilinadi, talab prognoz qilinadi hamda individual marketing strategiyalari shakllantiriladi. Natijada korxonalar resurslarni samarali taqsimlash va daromadni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uchinchi yo'nalish sifatida raqamli marketing strategiyalarining rivojlanishi qayd etiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, SEO, SMM, influencer marketing va kontent marketing elektron tijoratning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Ushbu vositalar orqali kompaniyalar

nafaqat yangi mijozlarni jalb qiladi, balki mavjud mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, brendning raqamli muhitdagi obro'si va ishonchliligi ham oshadi. To'rtinchi muhim jihat kiberxavfsizlik masalasi hisoblanadi. Elektron tijoratning kengayishi bilan birga ma'lumotlar xavfsizligi, to'lov tizimlari himoyasi va foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini saqlash dolzarb muammoga aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik darajasi past bo'lgan tizimlarda iste'molchilarning ishonchi kamayadi va bu savdo hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy shifrlash texnologiyalari va xavfsizlik protokollarini joriy etish muhim hisoblanadi. Beshinchi yo'nalish huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish bilan bog'liq. Elektron tijoratni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi soha rivojiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu bois davlat tomonidan raqamli iqtisodiyot va elektron savdoni qo'llab-quvvatlovchi qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tahlillar asosida elektron tijoratning iqtisodiy samaradorligi bir qator ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Jumladan, tranzaksiya xarajatlarining kamayishi, savdo jarayonlarining tezlashishi, bozor geografiasining kengayishi hamda kichik va o'rta biznes subyektlarining global bozorga chiqish imkoniyatlari oshishi kuzatiladi. Bu esa milliy iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari elektron tijoratning bandlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Raqamli platformalar, logistika xizmatlari, IT xizmatlari va onlayn marketing sohalarida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu esa mehnat bozorining diversifikatsiyasiga olib keladi.

Biroq, tahlillar ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Xususan, raqamli savodxonlikning yetarli emasligi, internet infratuzilmasining notekis rivojlanganligi, kiberxavfsizlik tahdidlari va logistika tizimidagi kamchiliklar elektron tijorat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligi zarur. Umuman olganda, elektron tijorat tizimlarini rivojlantirish iqtisodiy modernizatsiyaning ajralmas qismi bo'lib, u innovatsion texnologiyalar, raqamli infratuzilma va samarali boshqaruv mexanizmlari bilan uzviy bog'liqdir. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi islohotlar iqtisodiy o'sishning yangi bosqichini ta'minlashi mumkin.

Xulosa va takliflar

Raqamli transformatsiya sharoitida elektron tijorat tizimlarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ushbu soha zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Elektron tijorat nafaqat savdo jarayonlarini raqamlashtirish vositasi, balki iqtisodiy tizimlarning umumiy samaradorligini oshiruvchi strategik omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon orqali ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi an'anaviy chegaralar qisqaradi, bozorlar esa global miqyosda kengayadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron tijoratning rivojlanishi iqtisodiyotga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tranzaksiya xarajatlari kamayadi, savdo operatsiyalari tezlashadi, mahsulot va xizmatlarning bozordagi aylanishi samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratilib, ularning xalqaro bozorlarga chiqish salohiyati kengayadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq, mavjud tahlillar elektron tijoratni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar saqlanib qolayotganini ham ko'rsatadi. Xususan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, aholining raqamli savodxonligi pastligi, logistika tizimlaridagi kamchiliklar hamda kiberxavfsizlikka oid tahdidlar ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga to'sinlik qilishi mumkin. Shu sababli ushbu muammolarni bartaraf etish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, elektron tijoratni rivojlantirish iqtisodiy modernizatsiyaning ajralmas qismi bo'lib, u raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Kelgusida ushbu

sohani rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda elektron tijorat milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shirishini ta’minlovchi asosiy drayverlardan biriga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:

Asrayev, Sh.B. (2024). Raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy tizimlarni modernizatsiya qilishda elektron tijoratning roli. *Global Scholars Journal*.

Azaryan, E.M., & Makhnonosov, D.V. (2023). Digital transformation strategies in e-commerce systems. Retrieved from <https://www.researchgate.net>.

Jabbi, E. (2023). Digital transformation and e-commerce adoption: A comparative study. *ResearchGate*.

Madiyeva, Z. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat subyektlarini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari. *International Journal on Integrated Education*.

Maxmanazarovna, R. M. (2025). ELEKTRON TIJORAT NI RIVOJLAN ISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH. *Marketing Jurnal*, (3).

Ravshanova, M. . (2025). INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI. *Универсальная индексная библиотека прикладных наук в современном мире: проблемы и решения*, 4(16), 112–114. извлечено от <https://lib.uniconflix.com/index.php/uilzdaf/article/view/62748>.